


**Axmadaliyev Berdali
Saydaliyevich**

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Axmadaliyev Berdali Saydaliyevich

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI
Darslik

Ta'lim yo'nalishi: 60110500-Boshlang'ich ta'lim

a

r

TOSHKENT-2024
Osiyo tur

UO'K 373
KBK 74.00
A-98

B.S.Axmadaliyev / Tarbiyaviy ishlar metodikasi / Darslik. – Toshkent:
«Osiyo tur», 2024. – 248 bet.

Mazkur darslik boshlang'ich ta'limda Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bo'yicha ilk bor tayyorlangan bo'lib, unda tarbiyaviy ishlar metodikasining nazariy masalalari, metodologiyasi va amaliyoti omillari tahlil etilgan. O'quv qo'llanmani tayyorlashda milliy pedagogik tajriba va xorijiy pedagogik an'analar uyg'un hisobga olingan. Mazkur o'quv qo'llanmaning asosini o'qitishning kredit-modul tizimi qoidalar va talablari tashkil etadi. Undan boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar va amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari foydalanishi tavsiya etiladi.

Taqrizchilar:

Fotima Uralovna Jumanova– pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Ochilov Faruddin Izzatullayevich– pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligining 2023-yil 29 maydagi 232-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.

UO'K 373
KBK 74.00

ISBN 978-9943-9169-9-9

© B.S.Axmadaliyev, 2024
© Osiyo tur, 2024

MUNDARIJA

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsad va vazifalari	7
2. Tarbiya turlari, usullari, shakllari va texnologiyalari	13
3. O'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirish borasida sinf rahbari olib boradigan ishlar. Sinfda intizomni mustahkamlash	20
4. Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari. Sinf rahbarining asosiy vazifalari	26
5. Sinf rahbarining namunaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi	32
6. Sinf tarbiyaviy soatlari haqida umumiy tushuncha. Sinf majlisini tashkil etish	50
7. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari	67
8. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi	79
9. Tarbiyaviy tadbirlar va ularni o'tkazish metodikasi. Maktabda to'garak ishlarini tashkil etish	86
10. Jamoa haqida umumiy tushunchajamoani tashkil etish metodikasi sinf jamoasini tashkil etish va tarbiyalash.	91
11. Oila, maktab, mahalla hamkorligining shaxs ma'naviyati shakllanishidagi o'rni	98
12. Oila va jamiyatning inson hayotidagi o'rni	101
13. Ota-onalar bilan ishlash, ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berish	111
14. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi. Sinf dan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish va unda tashkilotchi shaxsiga bo'lgan talablar	123
15. Tarbiyada muomala mahorati. O'quvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati	130
16. Tarbiyaviy ishlarning o'quvchi tarbiyasiga ta'siri. Tarbiyaviy ishlar orqali insonparvarlikni tarbiyalash	148
17. Iste'dodli bolalarni aniqlash va ularni tarbiyalash. Sinf faollarini aniqlash. Sinf rahbari va bolalar yetakchisi	156
18. Sinf rahbari ishining maqsadi va vazifalari. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyatini tashkil etish metodikasi	158
19. O'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirish borasida olib boriladigan ishlar. O'quvchilarni pedagogik kuzatish	169
20. O'quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari	173
21. Maktab o'quvchilari shaxsini har tomonlama kamol toptirish. Sinf jamoasinitashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi	182
22. O'qituvchining o'quvchilar jamoasi bilan ishlash usullari. Jamoada o'quvchilarni o'rtoqlik va do'stlik hissida tarbiyalash. O'quvchi va o'qituvchi munosabat	194

23. Ajdodlarimiz madaniy merosi. Sharq mutafakkirlarining merosida oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash	219
24. Ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berish. Oilaviy urf-odatlar, an'analar. Ota-onalar va sinf majlisini tashkil qilish	227
25. Tarbiyaviy tadbirlar va ularni o'tkazish metodikasi. Tarbiyaviy tadbirlarga ssenariy yozish	237

KIRISH

Pedagogika sohasida oliy ma'lumot beruvchi zamonaviy ta'lim muassasalari oldiga yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalaydigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi qo'yilmoqda. Bunda har bir shaxsning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yosh avlodni ijtimoiy muhofaza qilish, ya'ni ruhiy kamolotini yuksaltiruvchi muhitni yaratish, buning uchun sog'lom muhit va tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilish muhimdir.

"Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi", – degan juda chuqur ma'noli ibora bor. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda ana shu qoidaga amal qilinmog'i lozim bo'ladi. "Mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimining yangi platformasi, strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan butunlay yangi bosqichgako'tarishimiz kerak"¹ligi hisobga olinib hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda 1 — 9-sinflarda — 2020/2021- o'quv yilidan, 2021/2022- o'quv yilidan boshlab esa 10 — 11-sinflarda yagona "Tarbiya" fani amaliyotga joriy etildi.²

Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarini shakllantirish bugungi milliy tarbiya tizimining bugungi kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi. Prezidentimizning "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu — yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim — yoshlar! Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"³, - deya ta'kidlagan fikrlari ham bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni shakllantirish ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylanganligini ko'rsatib beradi.

¹Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эгулик ва бунёдкорлик — миллий гоимизининг пойдеворидир. Т.: Тасвир. 2021. 14-бет.

²O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-son qarori.

³Prezident Sh. Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi" anjumanidagi nutqidan.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessansning tamal toshi qo'yilayotgan yangicha o'zgarishlar sharoitida "Taraqqiyot strategiyasida" belgilangan oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning milliy modelini ro'yobgachiqarish, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim-tarbiyani ongli ravishda idrok eta oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlik hissini yuragida tuya oladigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutish bilan birga, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat.

Ushbu qo'llanmani tayyorlashda ana shu yuksak talablar asosiy diqqat-e'tiborda tutildi. Zero, buyuk islohotlarni amalga oshirishda O'zbekiston sharoitida mustaqil fikrlovchi yoshlarning bo'lishi davr taqozosidir. Respublikada olib borilayotgan siyosatning bosh omillaridan biri ham yuksak axloqiy fazilatlariga ega, teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdan iboratdir.

I-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan metodlar.
3. Tarbiyaviy ishlar jarayonining ijtimoiy ahamiyati.
4. Tarbiyaviy ishlar metodikasining xususiyatlari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Mavzuning maqsadi: tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsad va vazifalari, mazmun-mohiyati, tarbiyaviy ishlar jarayonining ijtimoiy ahamiyati, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda boshqa fanlar bilan bog'liqligini ko'rsatib berish.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, "tarbiya" tushunchasi, tarbiyaning mazmun-mohiyati, tarbiya funksiyasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi, tarbiya metodlari, tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati, tarbiyaviy munosabat.

1. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Bugungi kunda mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarning mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar qilib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Yangi O'zbekiston mafkurasining mazmun-negizida tarbiya masalasi yotibdi. **"Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz."**⁴ Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqildi. "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonunning mazmun-mundariyasi yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga ega bo'lgan, istiqbolli vazifalarni hal etishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilganligini keltirish kifoya.

Tarbiya –yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsning aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan, insonning jamiyatda muvaffaqiyatli yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan yuksak insoniy xususiyatlarini tarkib toptirish jarayonlaridir.

Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda tarbiyaga shunday ta'rif berilgan: **"Tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har**

⁴Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эгулик ва бунёдкорлик – миллий ҳоъмизнинг пойдеворидир. Т.: Тасвир. 2021. –Б 6.